

**FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING NAZARIY ASOSLARI****Jo'rayeva Xurshida Pirmat qizi**

Toshkent shahar Yashnobod tumani

“BABM” ingliz tili o'qituvchisi

Annotatsiya - mazkur maqolada frazeologik birliklar haqida turli xil millat olimlarining o'zining nazariy qarashlari o'rganilgan va muhokama qilingan.

Kalit so'zlar - frazeologiya, frazeologik qatlam, frazema, frazeologik birlik, frazeologik birikma, frazeologik butunlik.

Аннотация - в данной статье изучаются и обсуждаются теоретические взгляды ученых разных национальностей на фразеологизмы.

Ключевые слова - фразеология, фразеологический пласт, фразема, фразеологическая единица, фразеологическое сочетание, фразеологический оборот.

Abstract - in this article, the theoretical views of scientists of different nationalities about phraseological units are studied and discussed.

Key words - phraseology, phraseological layer, phrase, phraseological unit, phraseological compound, phraseological integrity.

Til har bir millatning ko'zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir. Til bor ekan, millat barhayotdir. Tilni onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Mamlakatimizda til masalasiga ko'rsatilayotgan e'tibor juda katta, xususan chet tiliga bo'lgan e'tibor ham bundan mustasno emas. Shu o'rinda beixtiyor o'tgan asr boshidagi ma'rifat fidoyilari – jadid bobolarimizning g'oya va qarashlari yodga tushadi. Jumladan, Mahmudxo'ja Behbudiy dunyo donishmandlari asarlaridan xabardor bo'lishi, jahon adabiyoti durdonalaridan chinakamiga lazzatlanishi, shuningdek, zamonasini anglash, taraqqiyot uchun chet tilini



bilish o'ta muhimligini ta'kidlaydi¹.

Tilni lug'aviy boyligi jihatdan o'rganish, ularni o'qitishning zamonaviy usullarini o'qitish jarayoniga tatbiq etish bugungi kunda judayam dolzarb va zamon talablariga mos ravishda o'z ustuvorligini qo'llab quvvatlab kelmoqda.

Tilni o'qitishda uzviylik va izchillikni ta'minlash, darslik va o'quv qo'llanmalarni takomillashtirish, ilm-fan, ayniqsa tilshunoslik sohasidagi yangiliklarni ularda aks ettirish, bugungi va kelajakdagi vazifalarni yoritish, o'qitish jarayonida ilmiy yangiliklarni zamonaviy metodlar orqali tatbiq qilish zarurligini bugun har bir tilning rivojlanishi taqozo etmoqda. Tilshunoslikda lug'at zahirasi boyib borishi uchun turli imkoniyatlar mavjud bo'lib, lug'at boyligi asosan so'zlardan iborat. Leksik birliklar deganda, alohida so'zlarning o'zinigina emas, balki turg'un so'z birikmalari, fraza, turg'un ibora, frazeologizmlarni ham tushunamiz.

Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning tasnifiy belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Frazeologiyaning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o'rtasidagi muayyan farqlarga qarab ko'plab tadqiqotchilar frazeologiyalarni ikki xil: tor va keng ma'noda tushunadilar. Uni keng ma'noda tushunilganda, frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlar, ba'zi muloqot shakllari ham kiritiladi. Lekin, bu masala, ya'ni frazeologiyalarni keng ma'noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo'lib qolmoqda.

“Frazeologiya” atamasi yunoncha “frama” (phrasis-ifoda, nutq o'rami) so'zidan olingan bo'lsada, bu atama turlicha ma'nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Shu sababdan frazeologiya atamasi tilshunoslikda ikki ma'noda qo'llaniladi: tildagi mavjud frazeologik birliklarning jami ma'nosida, hamda shunday birlikarni o'rganuvchi soha ma'nosida.

¹ <https://www.gazeta.uz//Xorijiy> tillar: manzilga eltuvchi yo'l adog'i qayerda?



Demak, frazeologiya iboralar haqidagi ilm demakdir.

Frazeologik birliklar ikki yoki undan ortiq soʻzdan tarkib topgan, tuzilishi jihatdan birikmaga yoki gapga teng, soʻzga muqobil boʻlgan, koʻchma maʼno anglatuvchi, barqaror lugʻaviy birliklar sifatida leksik-semantik, funksional va sintaktik vazifalariga koʻra tilning boshqa birliklaridan ajralib turadi. Frazeologik birliklar leksika bilan birgalikda tilning lugʻaviy boyligini tashkil qiladi.

Frazeologik birliklarning kelib chiqishi juda qadimiy hisoblansa-da, ularni tadqiq etish nisbatan yosh hisoblanadi.

Frazeologiya atamasi yunoncha phrasis – fraza, logos – tushuncha, taʼlimot boʻlib, tilshunoslikning frazeologik birliklarini oʻrganuvchi boʻlimi deb talqin qilinadi. Tilshunoslikda ular frazeologizm, frazeologik birlik, frazema, ibora, idioma kabi atamalar bilan oʻrganilib kelinadi.

Frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalari: frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmnining belgi xususiyatini oʻrganish; frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasiva variantdorligini tavsiflash; frazeologizmlar tarkibida qoʻllanuvchi soʻzlar va ularga xos maʼnolarning oʻziga xos xususiyatlarini aniqlash; frazeologizmlarning soʻz turkumlari bilan oʻzaro munosabatlarini oydinlashtirish; ularning sintaktik rolini aniqlash; frazeologik birliklar tarkibida soʻzlarning yangi maʼnolari hosil boʻlishini oʻrganish va boshqa frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni oʻrganish, tasniflash va lugʻatlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Frazeologiyada ishlab chiqilgan oʻziga xos, xilma-xil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktur-semantik, grammatik, vazifaviy uslubiy asoslarga koʻra tasnif etiladi.

Struktur-semantik tasnif prinsipi asosiy hisoblanadi. Frazeologik iboralarining turli xil xususiyatlarini tashqi shaklga qarab tasnif qilish orqali ham aniqlash mumkin. Bu tasnifda koʻproq frazeologik iboralarining tarkibidagi soʻzlar soniga qarab eʼtibor beriladi. Tasnif natijasida iboralar tabiatiga koʻra nechta soʻzdan tashkil topganligini aniqlash mumkin. Koʻpgina tilshunoslar frazeologik iboralar faqat ikki soʻzdan ortiq boʻladi degan fikrlarni bildiradilar. Ammo kuzatishlar shuni koʻrsatadiki, frazeologik iboralar ikki, uch



va undan ortiqso'zlardan iborat bo'ladi. Ammo ayrim tilshunoslar bir so'zdan iborat iboralar hambor deb fikr yuritadilar.

Shu ma'noda frazeologik olim A.V.Kunin ingliz tili frazeologizmlarining ko'pchiligining muallifi noma'lum bo'lib, ular xalq tomonidan yaratilgan degan fikrlarni asosli ravishda ko'rsatib o'tgan². Ammo ba'zi frazeologik birliklarning kelib chiqish manbalarini aniqlash mumkin. Shu ma'noda frazeologiya tilning umumiy tizimiga kiruvchi mikrosistema bo'lib, bu tizim o'zida o'tmish merosni, qadriyatlarni aksettiradi, avloddan-avlodga o'tadi. Tizimni tashkil etuvchi frazeologik birliklarning ko'pchiligi ma'lum tilning boyish manbaidir. Frazeologik tizimni frazeologik birliklar, ularning asosiy komponentlari o'rtasidagi munosabatni tashkil etadi. Frazeologizmlar birdan ortiq so'zlardan tashkil topgan, ma'no va shakl jihatdan turg'un bo'lgan so'zlar bog'lanmasidir. Frazeologizmlar ko'chma ma'noda, obrazli ifodalarda qo'llaniladi hamda tarixiy qo'llanish me'yorlariga, usullariga ega bo'lib, ularning ma'nosi muayyan nutq jarayonida oydinlashadi. Frazeologizmlar so'z birikmasi yoki gap shaklida bo'lsa ular nutq birligi bo'lgan gaplardan farq qiladi. Ular lug'aviy birlik sifatida ko'p jihatdan so'zlarga yaqin turadi, so'zlarga xos bo'lgan juda ko'p xususiyatlar frazeologizmlarga ham xosdir³.

Jumladan, professor Sh. Rahmatullayevning fikricha bir so'zdan iborat iboralar idiomatik iboraning eng yuqori taraqqiyot bosqichida hosil bo'ladi. Bu turdagi iboralar qo'shma so'z yoki yakka so'z bilan ifodalanadi, ular to'g'ridan-to'g'ri fikrni anglatma olmasligi jihatdan ham qo'shma so'zlardan farqlanadi. To'g'ri bir so'z orqali ham idiomatik ma'no anglashiladi. Lekin bunday so'zlarni ibora deyish qiyin. Chunki ibora so'zlar birikmasidan iborat bo'lishi kerak deydi⁴. Bu haqda V.V.Vinogradov, A.Abakumov, A.Shaxmatovlarning fikrlari qimmatga sazovordir. Idiomatik so'zlar faqat birgina komponentdan tashkil topib, idiomatik ma'no anglatadi. Lekin ibora aks ettirgan

² . Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М.: 1995. – 109 с.

³ Алефиренко Н.Ф., Семенов Н.Н. Издательство «Флинта», 2009. – С. 346.

⁴ Rahmatullayev Sh. O'zbek tili frazeologiyasining asosiy ma'no turlari. – T.: Akadem nashr, 1985. – 109 b.



xususiyatlarni anglata olmaydi. Akademik V.V.Vinogradovning aytishicha, frazeologik birliklarning taraqqiyoti frazeologik butunlikdan boshlanib, frazeologik qo’shilmalarga aylanishi kerak. Frazeologik butunlikdan frazeologik chatishmalar, keyinchalik esa frazeologik qo’shilmalarga taraqqiy etib borishi kerak. Shu fikrga asoslanib Sh.Raxmatullayevning “Idiomatik so’zlar frazeologik qo’shilmalar negizida vujudga keladi” degan fikrlari asoslidir.

Frazeologik birikmalar asosan so’zlar birikmasidan iborat, boshqacha aytganda, frazeologizmlar tilning alohida birligi bo’lib, tuzilishiga ko’ra erkin bog’lanma yoki gapga teng, to’liq yoki qisman semantik qayta shakllangan obrazli, turg’un so’z birikmalarini o’z ichiga oladi. Frazeologizmlarning aksariyati ingliz tilida ham, boshqa xildagi tillarda ham xalq tomonidan yaratilgan, ularning mualliflari ma’lum emas, kelib chiqish manbalari aniq emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алефиренко Н.Ф., Семененко Н.Н. Издательство «Флинта», 2009.
2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка—М.: 1995.
3. Rahmatullayev Sh. O’zbek tili frazeologiyasining asosiy ma’no turlari. —T.: Akadem nashr. 1985.
4. Телия В.Н. Что такое фразеология, М., “Наука”, 1966.
5. Umarov E.A Frazeologik lug’at, Xazoin-ul maoniy A.Navoiy, Toshkent 1971.